


IV. INVESTITSİYALAR VA QURILISH




2023-yilning yanvar-sentabr oylarida Jizzax viloyatida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 10 401,1 mlrd. so‘m, (dollar ekvivalentida 900,0 mln. AQSH doll.) asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirilib, o‘shish sur‘ati o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 120,8 foizni tashkil qildi.

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.



2023 yil 1-oktabrholatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, birlikda



Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘zishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 72,4 foizni tashkil qildi.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 52,4 foiz ulushni;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 22,0 foiz ulushni;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 25,6 foiz ulushni tashkil etdi.



Moliyalashtirish manbalari va mulkchilik shakllari bo‘yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning taqsimlanishi
(2023- yil yanvar-sentabr)

	Jami	shu jumladan: mulkchilik shakllari bo‘yicha:	
		davlat	nodavlat
Jami investitsiyalar, mlrd. so‘m	10 401,1	1 354,1	9 047,0
<i>shu jumladan: moliyalashtirish manbalari bo‘yicha:</i>			
davlat byudjeti mablag‘lari	1 050,1	1032,5	17,6
Suv ta‘minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg‘armasi	155,8	155,8	-
korxonalar va aholi mablag‘lari	3 314,1	153,5	3 160,6
chet el investitsiyalari va kreditlari	4 833,8	11,6	4 822,2
bank kreditlari va boshqa qarz mablag‘lari	1 047,3	0,7	1 046,6
Tiklanish va taraqqiyot fondi	-	-	-

Davlat byudjetidan ajratilgan investitsiyalar ijtimoiy sohani va hayotiy ta‘minot tizimini qo‘llab quvvatlashga, Jizzax viloyati infrastrukturasi rivojlantirishga qaratilgan manzilli investitsiya dasturlarini amalga oshirish uchun yo‘naltirilgan.



Qurilish ishlari
(2023- yil yanvar-sentabr)

	Qurilish ishlari, mlrd. soʻm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikro-firmalar	Norasmiy sektor

Qurilish ishlari hajmi, foiz hisobida

Jizzax viloyati	2 845,5	170,5	2 114,1	560,9
------------------------	----------------	--------------	----------------	--------------

1. Kichik va mikro-firmalar.

2. Norasmiy sektor.

3. Yirik qurilish tashkilotlari.

shahar:

Jizzax	1 273,8	125,2	1 068,4	80,2
--------	---------	-------	---------	------

tumanlar:

Arnasoy	45,0	-	23,5	21,5
---------	------	---	------	------

Baxmal	104,5	-	46,1	58,4
--------	-------	---	------	------

Gʻallaorol	143,9	-	83,8	60,1
------------	-------	---	------	------

Sharof Rashidov	488,4	-	413,9	74,5
-----------------	-------	---	-------	------

Doʻstlik	72,4	-	46,0	26,4
----------	------	---	------	------

Zomin	241,5	43,6	149,5	48,4
-------	-------	------	-------	------

Zarbdor	89,2	-	45,6	43,6
---------	------	---	------	------


Zafarobod	39,0	0,1	9,4	29,5
-----------	------	-----	-----	------

Mirzachoʻl	53,3	1,6	25,3	26,4
------------	------	-----	------	------

Paxtakor	142,4	-	109,7	32,7
----------	-------	---	-------	------

Forish	132,9	-	83,0	49,9
--------	-------	---	------	------

Yangiobod	19,2	-	9,9	9,3
-----------	------	---	-----	-----



2023 yilning yanvar-sentabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 170 495,1 mln. soʻmni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022-yilning mos davriga nisbatan 127,6 foizni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022 yilning mos davridagi koʻrsatkich darajasidan 1,0 foiz punktga koʻpayib, 6,0 foizni tashkil etdi.





Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar

(mlrd. so'm)

Faoliyat turlarining nomi	Yanvar-sentabr					
	2021 yil	Umumiy hajmga nisbatan foizda	2022 yil	Umumiy hajmga nisbatan foizda	2023 yil	Umumiy hajmga nisbatan foizda
Jami	6 536,0	100,0	8 012,9	100,0	10401,1	100,0
<i>shu jumladan: iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:</i>						
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	855,8	13,1	1 827,0	22,8	1 287,0	12,5
tog'-kon sanoati	677,4	10,4	96,2	1,2	976,2	9,4
ishlab chiqarish sanoati	2 929,4	44,8	4 126,6	51,5	4 850,6	46,6
elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	147,1	2,3	264,4	3,3	541,4	5,2
suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish	180,0	2,8	280,5	3,5	402,8	3,9
qurilish	537,8	8,2	136,2	1,7	327,7	3,2
ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash	570,6	8,7	256,4	3,2	368,9	3,5
tashish va saqlash	59,8	0,9	112,2	1,4	116,4	1,1
yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	6,3	0,1	8,0	0,1	43,3	0,4
axborot va aloqa	16,3	0,2	40,1	0,5	139,5	1,3
moliyaviy va sug'urta faoliyati	7,7	0,1	16,0	0,2	8,5	0,1
professional, ilmiy va texnik faoliyat	69,2	1,1	16,0	0,2	402,7	3,9
ta'lim	59,5	0,9	56,1	0,7	159,4	1,5
sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	41,5	0,6	24,0	0,3	117,7	1,1
Boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar - joy binolari qurilishiga investitsiyalar	296,7	4,5	576,9	7,2	458,8	4,4
san'at, ko'ngil ochish va dam olish	14,4	0,2	56,1	0,7	62,4	0,6
boshqa faoliyat turlari	66,5	1,1	120,2	1,5	137,8	1,3

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tog'-kon sanoatida – 976,2 mlrd. so'm (jami investitsiyalar hajmida 9,4 %), ishlab chiqarish sanoatida – 4 850,6 mlrd. so'm, (46,6 %) shundan, oziq-ovqat mahsulotlari, ichimliklar va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarishda 136,5 mlrd. so'm (1,3%), to'qimachilik mahsulotlari va kiyim ishlab chiqarishda – 555,8 mlrd. so'm (5,3 %), nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishda – 2 068,3 mlrd. so'm (19,9 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda – 541,4 mlrd. so'm (5,2 %), qurilishda – 327,7 mlrd. so'm (3,2 %), tashish va saqlashda – 116,4 mlrd. so'm (1,1 %), ulgurji va chakana savdo, motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlashda – 368,9 mlrd. so'm (3,5 %), axborot va aloqada 139,5 mlrd. so'm (1,3 %), professional, ilmiy va texnik faoliyatda – 402,7 mlrd. so'm (3,9 %), ta'limda – 159,4 mlrd. so'm (1,5 %), boshqa iqtisodiy faoliyat turlaridan tashqari: turar joy binolari qurilishida – 458,8 mlrd. so'm (4,4 %) investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiyalar

2023 yilning yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning umumiy hajmi 10 401,1 mlrd. so'mni yoki 2022 yilning mos davriga nisbatan 120,8 foizni tashkil qildi.




Asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlarning tarkibi (2023 yilning yanvar-sentabrida)

Investitsiya turlari	Umumiy hajmi (mlrd. so'm)	Shu jumladan:	
		davlat kafolati ostida	to'g'ridan-to'g'ri va boshqalar
Jami asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar	4 833,8	187,2	4 646,6
shu jumladan:			
davlat	11,6	11,6	-
nodavlat	4 822,2	175,6	4 646,6

Hisobot davrida viloyat bo'yicha to'g'ridan – to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlarning, nodavlat sektoriga kiritilgan jami xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi ulushi 30,4 foizni tashkil qildi.



Xorijiy investitsiya va kreditlarning alohida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi



O'tgan yilning mos davriga nisbatan ishlab shiqarish sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar 17,3 foizga ko'paygan.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida xorijiy investitsiya va kreditlar 9,8 foizga kamaygan.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqalarda xorijiy investitsiya va kreditlar 13,6 foizga kamaygan.

Xorijiy investitsiya va kreditlar bo'yicha yuqori ulushga ega tumanlar




O'tgan yilning mos davriga nisbatan tog'-kon sanoatida xorijiy investitsiya va kreditlar 6,0 foizga ko'paygan.


Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida xorijiy investitsiya va kreditlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha salmoqli qismining o'zlashtirilishi ishlab chiqarish sanoatiga to'g'ri kelib, jami xorijiy investitsiyalar hajmidan 68,8 foizni tashkil qilgan va 2022 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 17,3 foizga kopaygan, mos ravishda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 13,0 foizni tashkil qildi.



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalaridan markazlashgan investitsiyalar tarkibi



Joriy yilning yanvar-sentabr oylarida kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalaridan markazlashmagan investitsiyalar tarkibi





2023 yil yanvar-sentabr oylarida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi shahar va tumanlar kesimida quyidagicha ifodalangan

	<i>Investitsiyalar hajmi, mlrd.so‘m</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>	<i>Aholi jon boshiga (ming so‘m)</i>	<i>O‘shish sur‘ati, % da</i>
Jizzax viloyati	10 401,1	120,8	6 991,4	118,1
<i>shahar:</i>				
Jizzax	2 036,8	112,4	10 536,8	109,7
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	140,5	103,1	2 909,5	101,6
Baxmal	419,1	100,7	2 491,6	98,4
G‘allaorol	2 133,5	166,2	11 569,8	162,6
Sharof Rashidov	888,7	155,0	3 715,4	150,9
Do‘stlik	91,1	102,7	1 314,2	100,9
Zomin	457,2	101,8	2 585,8	99,4
Zarbdor	106,5	100,1	1 140,6	97,8
Zafarobod	146,1	74,5	2 756,0	73,1
Mirzacho‘l	510,3	199,2	9 312,9	196,0
Paxtakor	205,3	137,5	2 569,6	134,4
Forish	3 221,5	104,7	33 040,9	102,8
Yangiobod	44,5	63,5	1 505,2	62,7

Ijtimoiy soha ob‘yektlarini qurish

Uy-joy qurilishida 458,8 mlrd. so‘mlik investitsiyalar o‘zlashtirildi yoki jami investitsiyalar hajmining 4,4 foizni tashkil qildi.



2023 yilning yanvar-sentabr oylarida yangi qurilish va rekonstruksiya hisobidan foydalanishga topshirilgan turar-joy va ijtimoiy soha ob'ektlari

Obekt turlari	Barcha manbalar hisobidan			
	Foydalanishga topshirildi		2022 yil yanvar-sentabriga nisbatan foizda	
	jami	shu jumladan: qishloq joylarda	jami	shu jumladan: qishloq joylarda
Uy-joy, umumiy maydoni ming kv.m	409,4	212,4	93,6	84,2
undan:				
yakka tartibdagi uy-joylar	409,4	212,4	97,1	87,0
yakka tartibdagi uy-joylar namunaviy loyihalar bo'yicha shahar va qishloq joylarda	-	-	-	-
Umumiy ta'lim va maxsus maktablar, o'quvchilar soni	5 610	1 560	70,0	28,7
Suv tarmoqlari, km	970,3	878,6	2,9 m.	3,4 m.
Gaz tarmoqlari, km	26,4	8,8	93,6	63,3

2023 yilning yanvar-sentabr oylarida umumiy maydoni 409,4 ming kv. m bo'lgan 1 837 ta uy-joy (2022 yilning yanvar-sentabr oylariga nisbatan 83,6 %), shu jumladan qishloq joylarida 212,4 ming kv m (84,2 %) maydonga ega 927 ta uy-joy foydalanishga topshirildi.

Kommunal qurilishda 970,3 km suv tarmoqlari (878,6 km qishloq joylarda) va 26,4 km gaz tarmoqlari (8,8 km qishloq joylarda) ishga tushirilib, mos ravishda 2022 yil yanvar-sentabr oylariga nisbatan 2,9 marta va 93,6 foizni, qishloq joylarda esa bu ko'rsatkich suv tarmoqlari 3,4 marta, gaz tarmoqlari 63,3 foizni tashkil qildi.

Suv tarmoqlari qurilishiga 365,5 mlrd. so'm, shundan aholi mablag'lari hisobidan 1,0 mlrd. so'm (0,3 %) va suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamgarmasi mablag'lari hisobidan 155,7 mlrd. so'm (42,6 %) hamda moliyalashtirishning boshqa manbalari hisobidan 208,7 mlrd. so'm, (umumiy hajmning 57,1 %) o'zlashtirildi.

Gaz tarmoqlari qurilishiga 0,4 mlrd. so'm, shundan aholi mablag'lari hisobidan 0,4 mlrd. so'm (umumiy hajmning 100 %) o'zlashtirildi.

Qurilish faoliyati

2023 yilning yanvar-sentabr oylarida 2 845,5 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2022 yilning yanvar-sentabriga nisbatan 105,0 foizni tashkil etdi.

Mulkchilik shakllari boʻyicha qurilish ishlari tarkibi,


mlrd. soʻmda

	yanvar-sentabr		
	2021 yil	2022 yil	2023 yil
Qurilish ishlari hajmi	2 297,1	2 557,1	2 845,5
<i>shu jumladan:</i>			
davlat	48,0	24,5	10,0
nodavlat	2 249,1	2 532,6	2 835,5

Mulkchilikning nodavlat shaklidagi qurilish tashkilotlari tomonidan 2 835,5 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, jami qurilish ishlari hajmining 99,6 foizini tashkil qildi.



Mulkchilik shakllari boʻyicha qurilish tashkilotlarining oʻz kuchlari bilan bajargan qurilish ishlari taqsimoti (umumiy hajmga nisbatan % da)





Xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirilishi


Qurilish ishlari umumiy hajmining 83,1 foizi binolar va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari, 10,2 foizi fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari va 6,7 foizi ixtisoslashtirilgan qurilish ishlariga to‘g‘ri keldi. Shu jumladan, umumiy hajmdan 80,7 foizi yangi qurilish, rekonstruksiya va kengaytirish hamda texnik jihatdan qayta jihozlashga to‘g‘ri keldi.

Hisobot davrida viloyat bo‘yicha jami qurilish ishlari hajmi 2 845,5 mlrd. so‘m nodavlat sektorining ulushi 99,6 foizni tashkil qildi.

Qurilish ishlari umumiy hajmining 80,7 foizi yangi qurilish, rekonstruksiya qilish, kengaytirish va korxonalarni texnik qayta qurollantirishga, 19,3 foizi esa, kapital, joriy ta‘mirlashga va boshqa qurilish pudrat ishlariga to‘g‘ri keldi.



2023 yil yanvar-sentabr oylarida faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari hajmi, mlrd. so‘mda




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo‘ljallangan binolarni qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 83,1 foizni tashkil etdi va o‘tgan yilning mos davridagi ko‘rsatgichga nisbatan 2,1 foiz punktga ko‘paydi.

Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 10,2 foizni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,9 foiz punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga 6,7 foizi to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatgichga nisbatan 0,1 foiz punktga kamaydi.



2023 yil yanvar-sentabr oylarida tuman(shahar)lar kesimida qurilish ishlarining korxonalar toifasi bo'yicha ulushi (jamiga nisbatan % da)



Yirik pudrat korxonalari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining ulushi – 6,0 foizni tashkil etdi. Viloyatda qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilib, jami qurilish ishlarining – 74,3 foizini tashkil etdi. Norasmiy sektor tomonidan esa – 19,7 foizga qurilish ishlari bajarildi.

Viloyatda kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng yuqori ulushi Jizzax shahriga to'g'ri keldi – 83,9 foiz. Mazkur hududda norasmiy sektorning ulushi – 6,3 foizni tashkil etdi.